



Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- yil
yanvar-oktabr



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
62,9 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
3 276,7
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
9 472,2
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
67,4 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
121,3 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
118,8 %**



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 472,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 305,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,3** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	9 472,2	121,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	473,3	110,0
Moliyaviy xizmatlar	1 565,4	126,0
Transport xizmatlari	1 794,3	123,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 667,7	121,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	198,2	110,8
Savdo xizmatlari	3 068,0	114,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	253,9	127,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	427,0	130,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	194,7	141,7
Ijara xizmatlari	212,5	121,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	281,2	128,5
Shaxsiy xizmatlar	620,8	130,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	111,8	124,9
Boshqa xizmatlar	271,1	130,7

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**18,9 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,5 %**), shuningdek, shaxsiy xizmatlar (**6,5 %**) bo'yicha qayd etildi.


Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **141,7 %**. Nisbatan past ko'rsatkich aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida kuzatilgan – **110,0 %**.




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 794,3** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilning shu davriga nisbatan **123,1** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **18,9** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



- Avtomobil transporti
- Pochta va kuryerlik xizmatlar
- Omborxona va yordamchi transport xizmatlari

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **93,0** % dan yuqorini tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **94,3** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)**



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 666,7** mlrd. so'mga teng bo'ldi.


2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **121,0** % ga oshdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Pop tumanida **128,4** %, Norin tumanida **127,7** %, va Mingbuloq tumanida **123,7** % ga erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz past o'sish sur'ati Chust tumanida **114,4** % ni qayd etdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,4 %** ni tashkil etib, bu **3 068,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **2 406,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021-y.
yanvar-
oktabr

3 068,0
mlrd. so'm



2 406,0
mlrd. so'm



Hajmning
o'sishi

114,8 %



98,9 %

2020-y.
yanvar-
oktabr

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda
(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Namangan shahrida qayd etilgan – **866,6** mlrd. so'm.

Shu bilan birga, hududlar orasida To'raqo'rg'on (**283,2** mlrd. so'm), Pop (**239,6** mlrd. so'm), Chust (**213,5** mlrd. so'm), Namangan (**207,7** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**191,8** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**187,6** mlrd. so'm) va Chortoq (**188,4** mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **78,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **79,1 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 565,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 217,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi **17,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **347,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **128,6** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,1 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,2 %** ni tashkil etgan .

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y.
yanvar-oktabr

415,8
mlrd. so'm

109,6%

5,8 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

57,5 mlrd. so'mga

2021- y.
yanvar-oktabr

473,3
mlrd. so'm

110,0 %

5,0 %


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-oktabr



2021- y.
yanvar-oktabr



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (**112,8 %**), Chortoq (**110,0 %**), Uychi (**109,9 %**) va Uchqo'rg'on (**109,4 %**) tumanlarida, shuningdek, Namangan shahrida (**111,7 %**) qayd etildi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da



2020- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turlarining nisbatan yuqori bo'lmagan darajadagi o'sishi Mingbuloq (**105,0 %**) tumanida qayd etilgan.


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **427,0** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,5 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **130,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Pop (**21,1** mlrd. so'm), Chust (**14,0** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**12,8** mlrd. so'm) va Namangan shahrida (**292,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2021 yil yanvar-oktabr oylarida)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Chust **158,2 %**, Norin **157,3 %**, Yangiqo'rg'on **153,1 %**, Uchqo'rg'on **151,2 %**, Pop **151,1 %** tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



◆ 2021- y. yanvar-oktabr

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-oktabr




194,7 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,1 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

141,7 %




O'sish sur'ati


2020- y.
Yanvar-oktabr



123,5 mlrd. so'm



1,7 %




86,1 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi
xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi To'raqo'rg'on tumanida **190,4%** ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Mingbuloq tumanida kuzatildi – **114,0 %**.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

153,7 mlrd.
so'm

198,2 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2020- y.
yanvar-oktabr

2021- y.
yanvar-oktabr

95,5 %

110,8 %

O'sish
sur'ati



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **44,5** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2020- y.
Yanvar-
oktabr

2021- y.
Yanvar-
oktabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **77,4** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,4** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Namangan viloyati	9 472 ,2	121,3	103,4
Namangan sh.	3 702 ,5	122,4	103,8
tumanlar:			
Mingbuloq	406,2	121,1	104,2
Kosonsoy	494,7	119,6	102,0
Namangan t.	531,4	121,7	104,2
Norin	434,2	122,5	106,4
Pop	648,8	121,8	104,2
To'raqo'rg'on	643,0	122,9	101,5
Uychi	498,4	118,2	102,5
Uchqo'rg'on	504,1	118,5	101,5
Chortoq	541,7	120,4	104,2
Chust	603,1	120,1	101,8
Yangiqo'rg'on	464,2	119,4	102,5


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **39,1** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **38,7** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **4,3** % (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – **4,3** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

3 276,7
ming so'm

745,7 ming
so'mga



118,8 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 276,7** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 531,0** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni

21 907
birlik



2 778
birlikka
o'sgan

2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining
o'sishi

2020- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'ati

114,5 %



12,7 %

Ularning
umumiy
sonidagi
ulushi




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,9 %**, sanoat **21,5 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **8,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,3 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,1 %** ni, sanoat **21,2 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **8,3 %** ni va qurilish **7,4 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**48,4** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **7,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,3** % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,3** % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,5** % ga teng bo'ldi.

Boshqa turdagi xizmatlar – **33,4** % ni tashkil etdi.

Savdo – 48,4

Boshqa turdagi
xizmatlar – 33,4

Yashash va ovqatlanish
– 7,1

Tashish va saqlash – 5,3

Axborot va aloqa – 2,5

Sog'liqni saqlash – 3,3


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,4 %** ni tashkil etdi

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,0 %** ga to'g'ri keldi.

1- noyabr
holatiga

2020- y.

77,8 %

2021- y.

80,0 %

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00